



TEXNOLOGIYALAR DAVRIDA HAQIQIY MULOQOTNING YO'QOLISH  
MUAMMOLARI.

Maxmutova Sevara Vohid qizi

Filologiya va tillarni o'qitish, ingliz tili 1-bosqich talabasi

Turdiyev Umidjon Kamoliddinovich

Navoiy innovatsiyalar universiteti, Ijtimoiy-gumanitar fanlari kafedrası PhD, professori

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada zamonaviy texnologiyalar rivoji sharoitida insonlar o'rtasidagi haqiqiy, yuzma-yuz muloqotning kamayib borishi muammosi yoritiladi. Texnologiyalarning muloqot jarayoniga ta'siri, uning ijobiy va salbiy jihatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, virtual aloqa vositalarining insoniy munosabatlarga ta'siri ochib berilib, jamiyatda haqiqiy muloqotni saqlab qolishning ahamiyati asoslab beriladi.

**Аннотация:** В данной статье рассматривается проблема постепенного сокращения подлинного, непосредственного общения между людьми в условиях развития современных технологий. Анализируется влияние технологий на процесс коммуникации, а также их положительные и отрицательные стороны. Кроме того, раскрывается воздействие виртуальных средств общения на человеческие отношения и обосновывается важность сохранения живого общения в обществе.

**Abstract:** This article examines the problem of the gradual decline of genuine, face-to-face communication among people in the context of the development of modern technologies. The impact of technologies on the communication process, as well as their positive and negative aspects, are analyzed. In addition, the influence of virtual communication tools on human relationships is revealed, and the importance of preserving real communication in society is substantiated.

**Kalit so'zlar:** texnologiya, muloqot, ijtimoiy tarmoqlar, virtual aloqa, jamiyat, insoniy munosabatlar, smaylik, stikerlar, qisqa xabarlar, yuzma-yuz muloqot, hissiy yaqinlik, empatiya, intonatsiya, yozma va og'zaki nutq, ijtimoiy begonalashuv, texnologiyaga qaramlik, yoshlar muammosi, ma'naviy qadriyatlar, kommunikativ ko'nikmalar.

## KIRISH

Bugungi globallashuv va raqamli texnologiyalar davrida inson hayotini texnologiyalarsiz tasavvur qilish qiyin. Smartfonlar, internet va ijtimoiy tarmoqlar axborot almashuvini tezlashtirib, masofalarni qisqartirdi. Biroq bu qulayliklar bilan bir qatorda insonlar o'rtasidagi haqiqiy, yuzma-yuz muloqotning kamayishi kabi intonatsiya, ma'lumot almashinuvi, ohang, emotsional harakat, suhbatdagi ruhiy holat kabilar yetarlicha bo'lmaganligi sababli jiddiy muammolar yuzaga chiqmoqda.

Bu holat aslida o'zbek adabiyotida ham ancha oldin ogohlantirilgan. Ma'rifatparvar adib Abdulla Avloniy inson tarbiyasi va jamiyat o'rtasidagi aloqa haqida shunday fikr bildiradi: agar inson jamiyat bilan doimiy va samimiy muloqotda bo'lmasa, uning ma'naviy



kamoloti to'liq shakllanmaydi. [2] Bu qarash bugungi texnologiyalar davrida ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan.

Shu nuqtai nazardan qaraganda, bugungi kunda muloqotning virtual shaklga o'tib borishi muammoni yanada chuqurlashtirmoqda. Avvallari odamlar o'z fikr va his-tuyg'ularini jonli suhbat orqali ifodalagan bo'lsa, bugungi kunda ko'plab muloqotlar virtual shaklga o'tib ketdi. Ijtimoiy tarmoqlardagi qisqa xabarlar, smaylik va stikerlar tezkorlikni ta'minlaydi, biroq ular haqiqiy suhbatdagi ton, intonatsiya, imo-ishoralar, kabi to'liq suhbatni va muloqotni almashtira olmaydi.

Amerikalik tadqiqotchi Sherry Turkle bu holatni quyidagicha ta'riflaydi: "We are connected, but alone." ("Biz o'zaro bog'langanmiz, ammo yolg'izmiz.") [6]. Bu fikr shuni anglatadiki, insonlar tashqi tomondan doimiy aloqada bo'lsa-da, ichki jihatdan yolg'izlanib bormoqda. Chunki virtual muloqotda yuz ifodasi, ovoz ohangi va tana harakatlari kabi muhim kommunikativ belgilar yo'qoladi.

Bu jihat o'zbek adabiyotida ham chuqur aks etgan. Yozuvchi Abdulla Qodiriy asarlarida insonlar o'rtasidagi munosabat aynan jonli suhbat, nigoh va ohang orqali boyishini ko'rsatadi. Uning mashhur romani "O'tkan kunlar"da qahramonlar o'rtasidagi ishonch va yaqinlik bevosita yuzma-yuz muloqot orqali shakllangan. [3]

Virtual muloqotning yana bir salbiy jihati – hissiy tushunmovchiliklarning ortib borishidir. Yozma muloqotda hissiyotlarni aniq yetkazish qiyin. Qisqa yozilgan birgina javob oddiy va betaraf ma'noda bo'lsa ham, uni qabul qiluvchi inson buni sovuqqonlik yoki befarqlik sifatida qabul qilishi mumkin. Chunki yozma muloqotda intonatsiya va hissiy rang mavjud emas.

Bu borada sotsiolog Zygmunt Bauman shunday yozadi: "Human relationships are no longer seen as something to be built and maintained, but something to be used and discarded." ("Insoniy munosabatlar endi qurib, asrab-avaylanadigan qadriyat emas, balki foydalanib tashlab yuboriladigan narsaga aylanmoqda.") [7]. Bu fikr insoniy munosabatlarning yuzaki tus olayotganini ko'rsatadi.

Mazkur holatni o'zbek adabiyotida Cho'lpon ham o'z asarlarida bilvosita ochib bergan. Uning qarashlarida so'zning ohangi va mazmuni inson qalbiga bevosita ta'sir qilishi, hissiy aloqaning yo'qolishi esa begonalashuvga olib kelishi ta'kidlanadi. [3]

Yuqoridagi muammolarning yana bir sababi — texnologiyaga qaramlikdir. Haqiqiy muloqotning kamayishiga internetga qaramlik, bandlik va virtual hayotga haddan tashqari berilish sabab bo'lmoqda. Texnologiyalar rivoji bu jarayonni yanada tezlashtirdi. Ilgari rasm yoki boshqa fayllarni uzatish uchun Bluetooth'dan foydalanilgan va bunda qurilmalar yaqin masofada bo'lishi zarur edi. Bu esa insonlarning bevosita uchrashishini talab qilardi. Hozirgi kunda esa Telegram, Instagram kabi ijtimoiy platformalar orqali istalgan masofadan turib tezkor axborot almashish mumkin. Natijada yuzma-yuz muloqotga ehtiyoj kamayib, virtual aloqa ustunlik kasb etmoqda. Davlat miqyosida esa, O'zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoyev "Telekommunikatsiyalarni rivojlantirish va internet tezligini oshirish" qarorida shuni ta'kidlaydi: Raqamli infratuzilmani rivojlantirish doirasida internet tezligi va sifatini oshirishni ustuvor vazifa etib belgilagan. Asosiy e'tibor xalqaro internet kanallariga ulanishni diversifikatsiya qilish, 5G tarmoqlarini kengaytirish va xususiy operatorlarga to'g'ridan to'g'ri ulanish



imkoniyatlarini yaratishga qaratilgan.[1] Ko'plab insonlar real hayotdagi suhbatdan ko'ra onlayn muloqotni qulay deb bilmoqda. Chunki real hayotda ko'rishish uchun ma'lum masofani bosib o'tish, vaqt sarflash kerak bo'ladi. Ba'zan transport muammolari yoki ob-havo ham noqulaylik tug'diradi. Onlayn muloqot esa telefon orqali bir necha soniyada amalga oshadi, inson o'ziga qulay joyda o'tirib gaplasha oladi. Masalan, Navoiy Innovatsiyalar universitetining Filologiya fakultetida tahsil olayotgan talabalar o'rtasida so'rovnoma o'tkazganimizda 199ta talabadan 160ta talaba real hayotdagi suhbatdan ko'ra onlayn muloqotni qulayligini ta'kidladi. Shundan xulosa qilish mumkinki, Navoiy Innovatsiyalar universiteti Filologiya fakulteti talabalari o'rtasida o'tkazilgan so'rovnoma natijalari ham onlayn muloqot real hayotdagi suhbatga nisbatan qulayroq deb baholanayotganini ko'rsatdi.

Amerikalik yozuvchi Nicholas Carr bu jarayon haqida shunday deydi: "The Internet is changing not only what we read, but how we think." ("Internet nafaqat nimani o'qishimizni, balki qanday fikrlashimizni ham o'zgartirmoqda.") [8] Bu holat ayniqsa yoshlar orasida jonli muloqot ko'nikmalarining susayishiga olib kelmoqda.

Shoir Erkin Vohidov ham o'z ijodida inson va jamiyat o'rtasidagi samimiy aloqaning uzilishi ma'naviy bo'shliqqa olib kelishini ta'kidlaydi. Uning fikricha, insoniy munosabatlar susayadi, jamiyatda befarqlik kuchayadi. [5] Shunday ekan, hozirgi zamonda muloqotning yo'qolib borishi muammosini hal qilish uchun texnologiyalardan butunlay voz kechish shart emas. Chunki texnologiya — zamon talabi. Biroq undan to'g'ri va me'yorida foydalanish muhimdir.

Birinchidan, kun davomida ma'lum vaqtni "telefon va internetdan holi vaqt" sifatida belgilash foydali bo'ladi. Masalan, biz buni tahlil qilgan holda, do'stlar davrasidagi suhbat davomida suhbatdoshlar ikki soat vaqt oralig'ida kamida to'rt yoki besh marta telefondan foydalanganligiga amin bo'ldik. Tahlil natijasida biz oilaviy suhbat paytida yoki do'stlar bilan uchrashuvda telefondan foydalanmaslik odatini shakllantirish kerak deb xulosa qildik.

Ikkinchidan, yuzma-yuz muloqotni ongli ravishda ko'paytirish lozim. Ota-onalar, ustozlar va yoshlar o'rtasida jonli suhbatlar, kitobxonlik kechalari, madaniy tadbirlar tashkil etilishi insonlar o'rtasidagi yaqinlikni mustahkamlaydi.

Uchinchidan, yoshlarni texnologiyadan foydalanish madaniyatiga o'rgatish zarur. Internetdan faqat ko'ngilochar vosita sifatida emas, balki bilim va rivojlanish manbai sifatida foydalanish targ'ib qilinishi kerak.

Shuningdek, muammo texnologiyaning o'zida emas, balki undan qanday foydalanishimizdadir. Agar biz texnologiyani boshqarsak, u bizga xizmat qiladi. Aks holda esa, u insoniy munosabatlarning susayishiga sabab bo'lishi mumkin. Shuning uchun ham zamonaviy hayotda eng muhim vazifa — texnologiya va haqiqiy muloqot o'rtasida muvozanatni saqlashdir.

Xulosa

Texnologiyalar inson hayotini yengillashtirib, axborot almashuvini tezlashtirgan bo'lsa-da, yuqorida keltirilgandek, ular haqiqiy muloqotning o'rnini to'liq bosa olmaydi. Virtual aloqa qulay vosita bo'lishi mumkin, ammo u insoniy munosabatlarning asosi bo'la olmaydi.



Shu sababli texnologiyalardan me'yorida foydalanish, yuzma-yuz suhbatlarga ko'proq ahamiyat berish va jonli muloqotni qadrlash zarur. Faqat shundagina jamiyatda sog'lom, samimiy va mustahkam insoniy aloqalar shakllanadi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.Shavkat Mirziyoyev. "O'zbekiston-2030" strategiyasida mamlakatimizni mintaqaviy-"IT-HHB" ga aylantirish vazifasi belgilangan.2024.27-dekabr.
- 2.Abdulla Avloniy . Turkiy guliston yoxud axloq. Toshkent, 1913.
- 3.Abdulla Qodiriy.O'tkan kunlar. Toshkent, 1926.
- 4.Naim Karimov. Publitsistik maqolalar va adabiy qarashlar. Toshkent: Fan, 1993.
5. Erkin Vohidov.Ma'naviyat va inson. Toshkent: O'zbekiston, 2000.
6. Sherry Turkle. Alone Together: Why We Expect More from Technology and Less from Each Other. New York: Basic Books, 2011.
7. Zygmunt Bauman. Liquid Modernity. Cambridge: Polity Press, 2000.
- 8.Nicholas Carr. The Shallows: What the Internet Is Doing to Our Brains. New York: W. W. Norton & Company, 2010.